

Sidiqova Yulduz Sobirovna

Osiyo Xalqaro universiteti

“Pedagogika va psixologiya” kafedrası o‘qituvchisi

tel:+998914164032

yulduzsobirova048@jmail.com

KREATIV YONDASHUV ASOSIDA BOLALAR NUTQINI O‘STIRISH VA TAFAKKURINI RIVOJLANTIRISHDA DIDAKTIK O‘YINLARDAN FOYDALANISH

Annotatsiya: Ushbu maqolada kreativ yondashuvlar asosida bolalar nutqini o‘stirish va tafakkurini rivojlantirishda didaktik o‘yinlardan foydalanish yo‘llari tahlil qilingan. Didaktik talablarga rioya qilgan holda ta’limiy o‘yin faoliyatini tashkil etishning asosiy qismlari va syujetli-rolli o‘yinlarning bola faoliyatidagi ahamiyati ochib berilgan.

Kalit so‘zlar: Ta’lim metodlari, bola, didaktik talab, o‘yin syujetli - rolli o‘yin, tafakkur, nutq.

Kirish. Maktabgacha davr bu bolada motivatsiya, o‘z o‘zini namoyon etish, o‘z-o‘zini tatbiq eta olish, nimanidir bajarish xohish istagi intilishlari rivojlanadigan ajoyib davrdir. Shuning uchun bu soha ota onalardan tortib mazkur sohaga mutasaddi bo‘lgan barchaga bolalarning ta’lim olishga tayyorgarligiga zamon talablaridan kelib chiqqan holda yondashuvni talab qiladi. Kreativlik tushunchasi (lot, ing. "create-yaratish, "kreative" yaratuvchi ijodkor) ingliz tilidan tarjima qilinganda "ijod" ma’nosini anglatadi. Demak, kreativlik yaratish degan ma’noni anglatar ekan, tarbiyachi pedagoglardan o‘z kasbiga ijodiy yondashish, ijodiy muhitni yarata olish, ijodkor shaxsni tarbiyalash jarayonida masalalarni nostandart usullar bilan hal qilishni bolalarga singdira olishi zarurligi nazarda tutiladi.

Asosiy qism.

Ta’lim metodlari – o‘quv jarayonining murakkab tarkibiy komponenti bo‘lib, pedagog va talaba, o‘qituvchi va o‘quvchi, tarbiyachi va bola faoliyatlarining barcha yo‘nalishlarini yoritishga xizmat qiladi, ular o‘rtasida ko‘p sonli aloqa hamda bog‘lanishlarni yuzaga keltiradi. «Ta’lim metodi – belgilangan maqsadga erishishni ta’minlovchi, algoritmshatirilgan, muayyan mazmunga ega harakatlar tizimidir», deydi P.I. Podlasnyy. Olim sohadagi fikrlarini davom ettirib yozadi: "Ta’lim metodlarini tartibga solish ularning ma’lum belgilari bo‘yicha tartibini ifodalovchi tizimdir. Hozirda ko‘plab ta’lim usullari mavjud. Ammo bugungi kunda etakchi hisoblanuvchi didaktik g‘oya, yagona va o‘zgarimas usullar majmuini yaratishga intilish samarasiz yo‘l ekanligini isbotlab turibdi. O‘qitish –harakatchan dialektik jarayon. Ta’lim usullari tizimi ham bu harakatlanishni aks ettiradigan darajada jo‘shqin bo‘lishi, metodlarni qo‘llash amaliyotidagi doimiy o‘zgarishlarni hisobga olishi kerak". Ta’lim metodlariga turg‘un hodisa sifatida emas, o‘qitishning har bosqichida o‘ziga xos tarzda foydalanish mumkin bo‘lgan hodisa sifatida qarash kerak.

Maktabgacha ta’limda o‘tkaziladigan har qanday ta’limiy faoliyatni didaktik o‘yinlar orqali tashkil etish, pedagog boshchiligida qo‘llanilayotgan ta’lim usullari kichik guruhdan o‘rta guruhga, undan katta va maktabga tayyorlov guruhlariga o‘tish asosida o‘zgarib, murakkablashib boradi. Bu jarayonda didaktik o‘yinlarni, ta’lim usullaridan foydalangan holda qo‘llash pedagogning kreativ kompetentligi va mahorati darajasiga bog‘liq holda tarkib topib boradi.

Pedagogik-psixologik adabiyotlar tahliliga asoslanib aytishimiz mumkinki, inson miyasining 30 foizini vizual, 3 foizini audial ta'minlovchi neyronlar tashkil etadi. Katta va maktabga tayyorlov guruhi bolalari nutqini o'stirish va tafakkurini rivojlantirishda qo'llaniladigan didaktik o'yinlar orqali bilimlarning 85 foizini ko'rish reseptorlari yordamida o'zlashtirish imkoni mavjud. Bolalarda kechadigan tafakkur jarayonining analiz va sintez qilish jarayonini ya'ni predmetning tashqi ko'rinishi, ichki tuzilishi haqida to'laqonli ma'lumot olish qulayligini nazarda tutgan holda maktabgacha ta'lim tashkilotlari o'qitish tizimida keng foydalaniladi ..

Maktabgacha yoshdagi bolalarni nutq o'stirish faoliyatlari asosida tafakkurini rivojlantirish bir necha bosqichda amalga oshiriladi. Masalan: narsalar, hodisa yoki jarayonlarni tabiiy holatda namoyish qilish bolalar tafakkurini rivojlantirishda didaktik samara beradi. Biroq, bunday namoyishni amalga oshirish har doim ham mumkin bo'lavermaydi. Shu sababli, tarbiyachilar tabiiy predmetlarni namoyish qilishda sun'iy muhitga murojaat qilishadi (masalan, hayvonlar bilan "Hayvonot bog'ida", turli ko'kat o'simliklar bilan "Issiqxonada", sabzavotlar bilan "Dalada", mevalar bilan "Bog'da" nomli suvjetli suratlar orqali tanishish) yoki sun'iy ravishda yaratilgan obyektlar (maket, model, mulyaj va boshqalar)dan foydalaniladi. Mazkur jarayon texnologik ta'lim tizimining yuqori darajali imkoniyatlarini ochib beradi. Mashg'ulotlar jarayonida tafakkurni rivollantirish usuliyoti ilmiy pedagogik didaktik shart-sharoitlar vositalar yig'indisidan iborat. Pedagogik tizim subyektlari hisoblangan tarbiyachi, tarbiyalanuvchi, ta'lim maqsadi, mazmuni, didaktik jarayonlar hamda tashkiliy shakllari yaxlit bir model asosida tashkil etilishini ifodalaydi. Mazkur modul asosiy didaktik elementlar tizimi: o'qitish maqsadi, bola (MTT tarbiyalanuvchilari jamoasi), tarbiyachi (tarbiyachining ta'lim jarayoniga kreativ yondashuvi, faoliyatning qurilishi), didaktik qonuniyatlari, didaktik tamoyillar, didaktik shart sharoitlar, o'zlashtirish natijalari, o'yinli ta'lim jarayoning o'quv metodik tuzilishidan iborat.

Didaktik talablarga rioya qilgan holda ta'limiy o'yin faoliyatini tashkil etishning asosiy qismlari quyidagilardan iborat bo'ladi.

I qism "Ta'lim tuzilishi va mazmunini" o'z ichiga oladi.

II qism "Ta'lim shakllari"

III qism "Ta'lim usullari, vositalari va qabul darajasi"

IV qism "Baholash va o'zlashtirish darajasi"

V qism "Kechki soatlarlarda takrorlash"

VI qism "Tarbiyachining monitoring nazorati".

Mazkur model asosida maktabgacha ta'lim tashkilotlarida ta'lim jarayonlarini har bir blokda ko'rsatilgan mexanizmlarga amal qilgan holda tashkil etish ta'lim sifat va samaradorlikka erishishiga xizmat qiladi. Nutq o'stirish va badiiy adabiyot bilan tanishtirish faoliyatlarida bolalar tafakkurini rivojlantirishga qaratilgan mazkur model quyidagi tamoyillarga amal qilish taqozo etadi:

- uzviylik va uzluksizlikni ta'minlash;

-izchillik, sistemalilik, bosqichma-bosqichlik;

- demokratlashtirish, insonparvarlashtirish;
- ta'limda obyekt-subyekt emas, subyekt-subyektlilikni ta'minlash;
- nazariyaning amaliyotga moslashganligi
- bola shaxsiga qo'yiladigan ta'limiy tarbiyaviy talabning bir xilligi;
- ta'limiy faoliyat mazmuni shakl, metod va vositalarining bola shaxsi qiziqishi, mayli, intilishi, yosh va psixologik xususiyatiga mosligi;
- ta'lim mazmunida umuminsoniy va milliy qadriyatlar mushtarakligini va uyg'unligini ta'minlash;
- ta'limiy faoliyatlarni maqsad sari yo'naltirish, rejali dastur asosida tashkil etish;
- ta'limiy ishlarni tashkil etishni boshqarishda adolatlilik, demokratik yondoshuv;
- bola shaxsiga differensial munosabat;
- ta'lim-tarbiyada kommunikativlik;
- ta'lim-tarbiyaviy ish natijalarini doimiy kuzatish, nazorat qilish, monitoring olib borish va boshqalar.

Yuqoridagilarga asoslanib amalga oshiriladigan o'quv faoliyatining foydali tomoni bola shaxsini pedagogik-psixologik tomondan o'rganish natijasi asosida tashkil etish bilan bog'liq. Didaktik o'yinlar pedagogik jarayonda ikkiyoqlama rol o'ynaydi: birinchidan, ular o'rganish usuli, ikkinchidan, mustaqil o'yin faoliyatidir.

Pedagogning ijodkorligi didaktik o'yinlarni tashkil qilish jarayonida muhimdir. Chunki ularning ijodkorligi pedagogik voqelikni tez o'zlashtirishlari, unga nisbatan kreativ yondashishlarini ta'minlaydi. Shundan kelib chiqib biz O. Musurmanovning pedagogik texnologiyalar – ta'lim samaradorligi omili degan ta'limotiga asoslanib ta'lim jarayonida qo'llaniladigan tamoyillarni umumpedagogik va xususiy tamoyillarga bo'lib o'rgandik. Umumpedagogik qoidalar: ilmiylik; ketma-ketlik; sistemalilik; ijtimoiy-g'oyaviy yo'nalganlik; ko'rgazmalilik; ta'lim va tarbiyaning birligi; nazariyaning amaliyot bilan bog'liqligi; insonparvarlik; ta'lim va tarbiyaning bolalar yosh psixologik xususiyatlariga mosligi; bola shaxsini hurmat qilish; pedagogik hamkorlik;

Xususiy qoidalar: ijodkorlik, tashabbuskorlik; ta'lim va tarbiya jarayonini oldindan loyihalash; uzviylik va uzluksizlik; sub'ekt-sub'ekt munosabatlarning ustunligi; ilmiy yutuqlar, ilg'or tajribalar, pedagogik g'oyalar yaxlitligi; qiziqarlilik, faollik; natijaning ustuvorligi, kafolatliligi; motivasiyaning yuqoriligi.

Birgalikdagi faoliyat- maktabgacha yoshdagi bolalar va pedagog o'rtasidagi o'zaro munosabatlarning asosiy shaklidir. Yuqoridagi tamoyillarga asoslanib katta va maktabga tayyorlov guruhi o'quv biluv faoliyatini tashkil etishda bir o'quv-tarbiyaviy mashg'ulot jarayonida bir necha tamoyillardan foydalaniladi, quyidagi didaktik talablarga amal qilish maqsadga muvofiq bo'ladi.

-didaktik o'yinlar ta'lim va tarbiya vazifalariga muvofiq tanlanishi kerak;

- tanlangan o'yinning dastur talablariga muvofiqligini belgilash va ma'lum yosh guruhidagi bolalarni o'qitish

- pedagog didaktik o'yinlar maqsadini oldindan belgilashi, yangi egallanadigan bilimlar doirasini aniqlashi, o'rganilishi rejalashtirilayotgan bilim va shakllantirilishi nazarda tutilayotgan ko'nikmalarning bolalardagi mavjud tajribalar bilan aloqadorligini ta'minlashi lozim;

- bolalar nutq va tafakkurini rivojlantirish uchun o'yin davomida tarbiyachi bolalarni tinglashi va ko'rsatmalar berilishi zarur bolaning tashabbusini ma'qullashi;

- qo'yilgan maqsad va vazifalardan kelib chiqib didaktik o'yinlar bolalarning yosh xususiyatlari bilan bog'liqlikda izchil, tanlov tamoyili asosida bo'lishi. Tanlovsiz bolaning individual xususiyatlari va subektivlikni rivojlantirish qobiliyatlarini namoyon qilishi mumkin emas.

-O'tkazilgan o'yinning tahlili uni tayyorlash va amalga oshirish yo'llarini aniqlashga qaratilgan:qo'yilgan maqsadga erishishda qaysi usullar samarali bo'ldi,nima o'xshamadi va nima uchun. Bundan tashqari tahlil bolalarning xulq atvori va xarakteridagiindividual xususiyatlarni aniqlash va ular bilan individual ishni to'g'ri tashkil etish imkonini beradi.

Didaktik o'yinlar asosida faoliyatlarning o'tkazilishi bolalarning o'zlari orasida, tarbiyachilar va atrof-muhit bilan o'zaro birgalikdagi harakati yotadigan interfaol o'qitish metodlari istiqbolini aks ettiradi.Didaktik o'yinlar bilan bir qatorda harakatli o'yinlar ham maktabgacha yoshdagi bolalar nutqini o'stirish va tafakkurini rivojlantirishda muhim pedagogik ahamiyat kasb etadi.

Qadimdan o'yin odam hayotining zarur qismi bo'lib kelgan. Chunki u yoqimli jismoniy yuklamani yetarli darajada beradi, munosabatda bo'lish talablarini qoniqtiradi, tarbiyalaydi hamda tashqaridan ma'lumot olish imkoniyatini yaratadi, shu jumladan ham ko'ngilochar dam olish holatini va kayfiyatini yaxshilaydi. Psixologiyadan bizga ma'lumki, bolalar faoliyatining asosini o'yin tashkil etadi. Ular o'z hayot tajribalarini kun davomida ko'rgan kechiganlarini o'yin tarzda namoish etadilar. O'yilar orqali ta'lim oladilar, rivojlanadilar.

Bizga ma'lumki, o'yin bolalarda shodlik, quvonch, tabbasumni ta'minlaydi, bolaning ijobiy xislatlarini shakllanishiga, ochilishiga ijobiy ta'sir etadi, bolalar jismoniy kuchini va qobiliyatlarini rivojlantiradi. Eng avvalo o'yin holatini har doim o'zgarib turishi va harakat jarayonida bola o'zini kuchliligi bilan to'satdan kelib chiqadigan holatdan mustaqil chiqib ketishi, o'z kuchini o'z tezkorligini, kuch va chidamliligini ko'rsatishi, o'rtoqlari bilan hamkorlikda bo'lishni maqsad qilib qo'yishi bilan bolalarni o'ziga rom qiladi.

Tadqiqotlar jarayonida shu narsa ma'lum bo'ldiki ijtimoiy tasavvur qilingan o'yin rivojlantirishning barcha sohalariga ijobiy ta'sir ko'rsatadi.

Syujetli –rolli o'yin davomida bolalar :

-turli xil narsalarni o'zgartirib ramziy tafakkurdan foydalanishadi (qog'ozlar pulga aylanadi, quti uyga aylanadi);

- turli kasb egalarining harakatlari va fikrlarini takrorlashni talab qiladigan rollarni bajarishadi va qo'llab quvvatlashadi (sartarosh, shifokor, quruvchi, oshpaz, sotuvchi);

-rollar o'rtasidagi munosabatni va ular o'zaro qanday munosabatda bo'lishini anglaydilar;

Syujetli-rolli o'yinlarda bolalar o'zlari bilgan boshdan his qilgan kechinmalarga tayanadi hamda ushbu tajriba asosida qandaydir yangilik yaratishadi.

Syujetli-rolli o'yin–bu juda kichik yoshdagi bolalar murakkab xulq-atvor hamda fuqarolik va ma'naviy kopetensiyalarni egallashga qanchalik tayyor ekanliklarini ko'rsatuvchi ko'p qirrali jarayon. Bu kopetensiyalar maktabgacha ta'lim tashkilotlarining tajribali pedagoglari tomonidan shakllanadi va yo'naltiriladi. Ular bolalarga boshqalar bilan qanday muvafaqqiyatli o'zaro munosabatda bo'lish, katta bo'lganlarida zimmalariga tushadigan rollarni qanday bajarish haqida bilimlarni beradi.

Xulosa. Bizga ma'lumki, o'yin bolalarda shodlik, quvonch, tabbasumni ta'minlaydi, bolaning ijobiy xislatlarini shakllanishiga, ochilishiga ijobiy ta'sir etadi, bolalar jismoniy kuchini va qobiliyatlarini rivojlantiradi. Eng avvalo o'yin holatini har doim o'zgarib turishi va harakat jarayonida bola o'zini kuchliligi bilan to'satdan kelib chiqadigan holatdan mustaqil chiqib ketishi, o'z kuchini o'z tezkorligini, kuch va chidamliligini ko'rsatishi, o'rtoqlari bilan hamkorlikda bo'lishni maqsad qilib qo'yishi bilan bolalarni o'ziga rom qila

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Sobirovna, S. Y. (2024). MAKTABGACHA TA'LIMDA NUTQ, MULOQOT OQISH VA YOZISH MALAKALARINING SOHALARI. TECHNICAL SCIENCE RESEARCH IN UZBEKISTAN, 2(1), 52-62.
2. Sobirovna, S. Y. (2023). Creativity in the work of an educator. American Journal of Public Diplomacy and International Studies (2993-2157), 1(10), 361-367.
3. Yulduz, S. (2024). SYUJETLI-ROLI OYINLARNING BOLA FAOLIYATIDAGI AHAMIYATI. TECHNICAL SCIENCE RESEARCH IN UZBEKISTAN, 2(1), 44-51.
4. Yulduz, S. (2023). MAKTABGACHA YOSHDAGI BOLALARDA EKOLOGIK TA'LIM BERISHNING O'ZIGA XOSLIGI. ОБРАЗОВАНИЕ НАУКА И ИННОВАЦИОННЫЕ ИДЕИ В МИРЕ, 21(3), 124-129.
5. Sobirovna, S. Y. (2023). O 'YIN ORQALI BOLA TAFAKKURI VA NUTQINI OSTIRISH. SAMARALI TA'LIM VA BARQAROR INNOVATSIYALAR, 1(3), 93-99.
6. Sobirovna, S. Y. (2022). PEDAGOGNING KREATIVLIGI BOLALAR IJODIY RIVOJLANISHINING ZARUR SHARTI. PEDAGOGS jurnali, 1(1), 219-220.
7. Yulduz, S. (2023). KREATIV YONDASHUVLAR ASOSIDA BOLALAR NUTQI VA TAFAKKURINI RIVOJLANTIRISH. ОБРАЗОВАНИЕ НАУКА И ИННОВАЦИОННЫЕ ИДЕИ В МИРЕ, 23(2), 87-92.
8. Sobirovna, S. Y. (2022). KICHIK MAKTAB YOSHDAGI O 'QUVCHILAR BILISH FAOLIYATINI RIVOJLANTIRISHNING PEDAGOGIK PSIXOLOGIK XUSUSIYATLARI. PEDAGOGS jurnali, 1(1), 158-160.
9. Sobirovna, S. Y. (2023). METHODIST FAOLIYATI ASOSLARI. SAMARALI TA'LIM VA BARQAROR INNOVATSIYALAR JURNALI, 1(5), 108-114.
10. Sobirovna, S. Y. (2024). AESTHETIC EDUCATION AS A TOOL TO LEAD CHILDREN TO PERFECTION. МЕДИЦИНА, ПЕДАГОГИКА И ТЕХНОЛОГИЯ: ТЕОРИЯ И ПРАКТИКА, 2(2), 354-367.
11. Yulduz, S. (2024). Estetik tarbiya bolalarni komillikka yetaklovchi vosita sifatida. TECHNICAL SCIENCE RESEARCH IN UZBEKISTAN, 2(2), 95-106.

12. Sobirovna, S. Y. (2023). Maktabgacha ta'lim yoshidagi bolalarga ekologik tarbiya berish. SAMARALI TA'LIM VA BARQAROR INNOVATSIYALAR JURNALI, 1(4), 160-166.
13. Sobirovna, S. Y. (2024). BOLALAR RIVOJLANISHIGA TA'SIR QILUVCHI OILAVIY VA IJTIMOY OMILLAR. Methods of applying innovative and digital technologies in the educational system, 1(2), 199-204.
14. Sobirovna, S. Y. (2024). BOLALARNI NUTQINI RIVOJLANTIRISHNING NEYROPEDAGOGIK XUSUSIYATLARI. Methods of applying innovative and digital technologies in the educational system, 1(2), 253-258.
15. Sobirovna, S. Y. (2024). BOLALAR RIVOJLANISH NAZARIYASIDA PIJENING KOGNITIV RIVOJLANISH MODEL. Methods of applying innovative and digital technologies in the educational system, 1(2), 193-198.
16. Sobirovna, S. Y. (2024). BOLALAR RIVOJLANISH BOSQICHLARI VA ULARNING PSIXOLOGIK XUSUSIYATLARI. Methods of applying innovative and digital technologies in the educational system, 1(2), 259-264.
17. Sobirovna, S. Y. (2024). MILLAT ERKI VA RUHI KUYCHISI. PEDAGOGIK TADQIQOTLAR JURNALI, 2(1), 130-132.
18. Sobirovna, S. Y. (2024). MAKTABGACHA TA'LIMIDA STEAM TA'LIM TEXNOLOGIYASIDAN FOYDALANISH. WORLD OF SCIENCE, 7(5), 512-520.
19. Sobirovna, S. Y. (2024). MAKTABGACHA TA'LIMIDA STEAM TA'LIM TEXNOLOGIYASIDAN FOYDALANISH. WORLD OF SCIENCE, 7(5), 512-520.
20. Sobirovna, S. Y. (2024). MAKTABGACHA TA'LIMIDA STEAM TA'LIM TEXNOLOGIYASIDAN FOYDALANISH. WORLD OF SCIENCE, 7(5), 512-520.